



DON ISHLAB CHIQARISH BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING ISTE'MOL SAVATIDAGI AHAMIYATI

*Turayeva Gulizahro Qaxxorovna -
Guliston davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a70

Annotatsiya. Jahon miqyosida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar sohaning o'rne va ahamiyati kundan kunga oshib bormoqda. Jumladan, bug'doy eng ko'p tarqalgan asosiy donli ekinlardan biri hisoblanadi. Bug'doy noni o'zining ta'mi, to'yimliliigi va hazm bo'lishi bilan yuqori baholanadi, mamlakatimizda ham mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlash, hosildorlik va manfaatdorlikni yanada oshirish, sohaga ilm-fan yutuqlari hamda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb masaladir.

Kalit so'zlar: don va don mahsulotlari, g'allachilik, hosildorlik, samaradorlik, don mustaqilligi, agrotehnologiya.

ЗНАЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ЗЕРНА В ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ КОРЗИНЕ

*Тураева Гулизахро Кахахоревна -
Гулистанского Государственного Университет,
Независимый исследователь*

Аннотация. Роль и значение аграрного сектора в обеспечении продовольственной безопасности населения в глобальном масштабе возрастает с каждым днем. В частности, пшеница является одной из самых распространенных зерновых культур. Пшеничный хлеб высоко ценится за его вкус, сытность и усвояемость, использование имеющихся в нашей стране ресурсов и возможностей для обеспечения гарантированного снабжения населения сельскохозяйственной продукцией, дальнейшего повышения продуктивности и интереса к внедрению научных достижений и современных подходов в Поле – актуальная проблема.

Ключевые слова: зерно и зернопродукты, производство зерна, урожайность, эффективность, зерновая независимость, агротехнология.

THE SIGNIFICANCE OF SUSTAINABILITY OF GRAIN PRODUCTION IN THE CONSUMER BASKET

*Turayeva Gulizahro Qaxxorovna -
Gulistan State University
Independent researcher*

Abstract. The role and importance of the agricultural sector in ensuring the food security of the population on a global scale is increasing every day. In particular, wheat is one of the most common cereal crops. Wheat bread is highly valued for its taste, satiety and digestibility, the use of resources and opportunities available in our country to ensure a guaranteed supply of agricultural products to the population, further increase productivity and interest in the introduction of scientific achievements and modern approaches in the field is an urgent problem.

Key words: grain and grain products, grain production, productivity, efficiency, grain independence, agricultural technology.

Kirish. Iqtisodiyotda "iste'mol savatchasi"ga kiruvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonlari va aholi farovonligining turli jihatlarini o'rganishga yetarlicha e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da, bu muammolar hamon munozarali ekani ko'rinib qolmoqda. Undagi don va don mahsulotlari bo'yicha O'zbekistonda istiqloqlarning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimiz aholisining don va don mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish, don mustaqilligiga erishish hamda barqarorligini ta'minlash borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilib kelmoqda.

Bug'doy eng ko'p tarqalgan asosiy donli ekinlardan biri hisoblanadi. Bug'doy noni o'zining ta'mi, to'yimliliigi va hazm bo'lishi bilan yuqori baholanadi. Bug'doy donining tarkibida uning naviga, ekish

sharoitiga qarab 11,0 %dan 18-19 %gacha oqsil moddasi bo'ladi. Bug'doy nonidagi oqsilning hazm bo'lishi 95 % ni tashkil qiladi. Bundan tashqari bug'doy donidan yorma tayyorlanadi, uning uni makaron va konditer sanoatida ishlatiladi. Bug'doy donining sifati, ya'ni tarkibidagi oqsil, kleykovina miqdori bug'doy naviga hamda yetishtirilayotgan mintaqaning tuproq-iqlim sharoitiga qarab o'zgaradi. Bug'doyning somoni va poxoli yem-xashak sifatida chorva mollariga beriladi, yanchishdan chiqqan chiqindilari yuqori sifatli ozuqa hisoblanadi. Texnikada bug'doy donidan spirt, kraxmal, kleykovina, dekstrin, kley va boshqa har xil mahsulotlar olinadi. Butun dunyo xalqlarining yarmidan ko'prog'i oziq-ovqat sifatida bug'doy nonidan foydalanadi. Bug'doy nonining tarkibida oqsil va kraxmal ko'p, oqsil

moddalar, asosan, kleykovina tarkibida bo'lganligi uchun uning unidan sifatli non tayyorlanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2017-2021-yilgacha mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida "...qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, mahalliy tuproq-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksion navlarini yaratish, boshqoqli don ekin maydonlarida zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, ayniqsa, g'allachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi"[1]. Xalqaro statistik ma'lumotlarda keltirilishicha, hozirgi kunda dunyo mamlakatlarida ishlab chiqarilgan jami bug'doy mahsulotlari 772 mln. tonnani tashkil etadi. Eng ko'p bug'doy yetishtiruvchi mamlakatlar 10 taligi ro'yxatidan quyidagi davlatlar o'rin olgan: Xitoy, Hindiston, Rossiya, AQSh, Fransiya, Kanada, Pokiston, Ukraina, Avstraliya va Germaniya. O'zbekistonda so'nggi besh yillikda gektaridan 55 sr/ga dan yuqori don hosili olinib, yalpi hosil miqdori 6,5-7,8 mln. tonnani tashkil etgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Don ishlab chiqarish barqarorligini taminlashning qanchalik zarurligi va uning foydali jihatlari haqida iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan o'z tadqiqotlarida va xalqaro konferensiyalarda fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan. Ular tomonidan don mahsuloti samaradorligini oshirishda tabiiy va intensiv yo'l bilan ishlab chiqarishni ko'paytirish amaliyotlari, don mahsulotining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rnini va ularning ijobiy jihatlari o'z davrlaridagi mavjud holatlar bo'yicha ko'rsatib o'tilgan.

X.N.Atabayeva, J.B.Xudayqulovning ta'kidlashicha, bug'doy eng ko'p tarqalgan asosiy donli ekinlardan biri hisoblanadi. Butun dunyo xalqlarining yarmidan ko'prog'i oziq-ovqat sifatida bug'doy nonidan foydalanadi. Bug'doy nonining tarkibida oqsil va kraxmal ko'p, oqsil moddalar, asosan, kleykovina tarkibida bo'lganligi uchun uning unidan sifatli non tayyorlanadi. Bug'doy noni o'zining ta'mi, to'yimliliigi va hazm bo'lishi bilan yuqori baholanadi. Bug'doy donining tarkibida uning naviga, ekish sharoitiga qarab 11,0 %dan 18-19 %gacha oqsil moddasi bo'ladi [2].

Z.M.Ilyina qishloq xo'jaligida oziq-ovqat bozori barqarorligi tahlili uchun quyidagi yondashuvlardan foydalanishni taklif qiladi[3]: statik (bozor rivojlanish chegaralarini aniqlash); dinamik (dinamiklar qatorining tebranishini o'rganish); adaptiv (oziq-ovqat tizimining tashqi sharoitlarning o'zgarishiga moslashish darajasini omilli baholash).

"O'zbekiston Respublikasi Tovar birjasining qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdo holati tahlili" mavzusidagi maqolamizda bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil etib, oziq-ovqat tizimini barqaror rivojlantirish, xususan, qishloq xo'jaligida g'alla mahsuloti savdosida birja mexanizmi faoliyati don barqarorligi bilan bevosita bog'liqligini aniqlaganmiz [4].

Qishloq xo'jaligida oziq-ovqat barqarorligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, ularning obyekti va ko'lamiga ko'ra (oziq-ovqat bozori, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, investitsiya faoliyati, davlat tomonidan tartibga solish, o'sish barqarorligi, strategiyani amalga oshirish va shu kabilar) tarkibiy unsurlari qishloq xo'jaligi sohasidagi xorij olimlarining ishlarida taklif etilgan: E.F.Zavorotin [5, 300-b.], V.Z.Mazloyev [6, 15-b.].

"Iste'mol savatchasi" va unga aloqador tushunchalar bir qator xorijlik va o'zbek olimlari tomonidan ilmiy asoslanib, iqtisodiy atama sifatida ishlatib kelinmoqda. Jumladan, L.Lofovskiy, B.Rayzberg, Ye.Starodubseva talqinicha, "iste'mol savatchasi" insonning yoki oilaning oylik (yillik) iste'moli odatiy darajasi va tuzilishini tavsiflovchi tovarlarning hisob-kitob qilingan to'plamidir. U amaldagi narxlarda iste'mol savatining narxidan kelib chiqqan holda (jon boshiga) minimal iste'mol budjetini hisoblash uchun ishlatiladi. U turli ijtimoiy va boshqa aholi qatlamlarining demografik va milliy tarkibi, hududiy joylashuvini hisobga olgan holda belgilanadi [7].


Tadqiqot metodologiyasi. Don ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash istiqbollari yaratish bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, tarif va narx shakllanishini qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, nisbiy va garmonik o'rtachalarni aniqlash, analiz va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida boshqoqli donning o'rtacha hosildorligini oshirish 2025-yilgacha 70 sr/ga 2030-yilgacha 75 sr/ga yetkazish belgilab olingan [8]. Bunda samaradorligi yuqori bo'lgan kuzgi bug'doy navlarini yetishtirishda jadal agrotexnologiyalarning tatbiq etilishi, don hosildorligini oshirish bilan bir qatorda sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish, donning texnologik sifat ko'rsatkichlarini oshirish eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Mamlakatimizning sug'oriladigan maydonlarida yetishtirilayotgan bug'doy navlarini ularning biologik xususiyatlarini inobatga olgan holda joylashtirish, yerni va urug'ni ekishga tayyorlash, ekish usuli, me'yori va muddatlari, organik va mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish, sug'orish, begona o't, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish, suv va yer resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, kuzgi bug'doy don hosildorligini oshirish maqsadida navlarni to'g'ri tanlash, saralangan yuqori sifatli urug'larni ekish talab etiladi. Sug'oriladigan sharoitda har bir viloyatning hududiy joylashuvi va mintaqalariga ko'ra o'ziga xos tuproq va iqlim sharoitiga ega. Shu bilan bir qatorda, yangi istiqbolli navlar uchun qo'llaniladigan yangi agro-

texnologik tadbirlar majmuyi shu joyning tabiiy sharoitidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilib, g'allakorlarga tavsiya etilishi yaqin kelajakda o'zining yuqori samarasini beradi [9].

Mahalliy va xorijiy olimlarning "iste'mol savatchasi" mohiyatiga oid ilmiy asarlarini o'rganish ushbu tushunchaning murakkab va ko'p qirrali ekanligini tasdiqlaydi. "Iste'mol savatchasi"ga kiritiladigan mahsulotlar soni va miqdori yuqorida keltirilgan talablarga javob berishi lozim. Masalan, har bir mehnatga yaroqli kishi bir yil davomida non mahsulotlari(un, yorma va dukkakli o'simliklardan tayyorlangan non va makaron)dan 126,5 kg, kartoshkadan 100,4 kg, sabzavot va poliz mahsulotla-

ridan 114,6 kg, turli sarxil mevalardan 60 kg, shakar va qandolat mahsulotlaridan 23,8 kg, go'sht va go'sht mahsulotlaridan 58,6 kg, baliqdan 18,5 kg, sut va sut mahsulotlaridan 290 kg, 201 dona tuxum, yog' va yog' mahsulotlaridan 11 kg, tuz, choy, ziravorlardan 4,9 kg iste'mol qilishi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari hamda xizmatlar narx-navosi aholining barcha qatlami uchun oziq-ovqat mahsulotlari qiymatining 50 foiziga teng bo'lishi nazarda tutilgan. Ko'rinib turibdiki, non va non mahsulotlari ahamiyati juda yuqori, ya'ni birinchi o'rinda yuqori miqdorda turganligini ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. "Iste'mol savatchasi"ga kiritiladigan mahsulotlar soni va miqdori[1]

Manba: <https://xs.uz/uz/post/iste'mol-savatchasi> ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shunday ekan, g'alla yetishtirish va iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida ko'p tomonlama aloqalarining mavjudligi barqaror don yetishtirish butun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va tovar bozori barqarorligini ta'minlashning asosi ekanligini ta'kidlash imkonini beradi. Barqaror don yetishtirish mamlakat iqtisodiy tizimining salmoqli qismini rivojlantirish uchun salmoqli salohiyatga ega.

Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda g'allachilik tarmog'i beqaror faoliyat ko'rsatmoqda va shuning uchun bu muammoni hal etish fermerlarning ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyatini boshqarish va ulardan oqilona foydalanishning samarali vositalarini yaratish, ularning asosiy va yordamchi faoliyatini optimallashtirishga bog'liq jarayonlar hisoblanadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish imkoniyatlari yetishtirishning texnologik xususiyatlari ta'sirida shakllanadi, don ekinlari va turli xil resurslardan foydalanishni o'z ichiga oladi: tabiiy, moddiy, mehnat, moliyaviy.

Cheklangan resurslar sharoitida ulardan oqilona foydalanish, shuningdek, ularning optimal nisbati ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va biznes jarayonlarini qurishda muhim omil hisoblanadi. Ishlab chiqarish resurslarining haddan tashqari sarflanishi yoki to'liq foydalanilmasligi qishloq

xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining samaradorligi pasayishiga olib keladi, bu esa keyinchalik ishlab chiqarishni kengaytirishning mumkin emasligi va g'alla sanoatining turg'unligida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida, asosan, don yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi va barqarorligini ta'minlashning ayrim jihatlarini masalalari ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, "G'alla yetishtirish barqarorligi" ilmiy kategoriyasini aniqlash, don yetishtirishning ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyati tuzilmasining xususiyatlari, g'alla yetishtirishning iqtisodiy rivojlanish davrlari, o'zgaruvchan ob-havo va iqlim sharoitlarining ta'sirini aniqlash masalalari ko'rib chiqildi. G'alla yetishtirishning barqarorligi bo'yicha iqlim sharoiti va uzoq muddatli xavfsizlik ssenariyalarini ishlab chiqish yetarli darajada o'rganilmaganligicha qolmoqda. Shu bilan birga, xo'jalik yuritishning tez o'zgarib borayotgan iqtisodiy va texnologik sharoitlari, mamlakatimizning ko'pgina hududlarida g'alla yetishtirishning beqarorligi nazariy usullarni yanada rivojlantirish zarurligini taqozo etmoqda. G'alla sanoatida iqtisodiy o'sish dinamikada barqaror bo'lgan yalpi g'alla ishlab chiqarishning ham natura, ham aholi jon boshiga o'sishi bilan ifodalanadi [10].

Tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bu ko'rsatkichning o'sishi qulay sharoitlar tufayli hosildorlik o'sishining yagona ustun ko'rsatkichi emas, balki tendensiya bo'lishi kerak.

Bugungi kunda Respublikamizda 2022-yil hosilidan sug'oriladigan maydonlarning har gektaridan o'rtacha 2,5 tonnadan jami 2 550 ming tonna bug'doyning:

- 1 783,5 ming tonnasi tovar bug'doy davlat resursi sifatida hamda 266,5 ming tonnasi urug'lik uchun Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan xarid qilinadi;

- 500 ming tonnasi fermer xo'jaliklari hamda boshqa g'alla yetishtiruvchilar tomonidan keyinchalik birja savdolarida sotish uchun Jamg'armaning tijorat vakilida vaqtinchalik saqlashga qabul qilinadi.


2022-yil hosili uchun bug'doy yetishtiruvchilardan tijorat vakilida vaqtinchalik saqlash uchun qabul qilingan tovar bug'doy 2022-yilning iyul-

avgust oylarida birja savdolari orqali sotiladi. Don mahsulotlari o'z o'rnida 2 turga bo'linadi, bular:

1. Bug'doysimonlar (Bug'doy, arpa, suli, sholi).

2. Tariqsimonlar (mosh, makkajo'xori, loviya va hokazo) [11].

Shuningdek, qo'shni respublikamiz Qozog'istonda g'alla mahsulotlarini ekish va sotishda O'rta Osiyoda, balki dunyo hamda jahon bozorida ham o'z o'rnini topgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bizga ma'lumki, Qozog'iston bizga qo'shni davlat, lekin nima uchun bugungi kunda "o'zbek bug'doyi" yoki "o'zbek doni" degan brendni eshitmaganmiz? Chunki qo'shnilarimiz g'alla ekish va oldi-sotdi qilishda dehqonlarning o'zlari mustaqil ekish va sotish huquqiga ega. Bugungi kunda dunyo aholisi ortib borishi va shu o'rinda aholi talabiga qarab oziq-ovqat mahsulotlariga talab ham ortishini hisobga olgan holda aholiga oziq-ovqat mahsuloti sifatida don mahsulotlarini yetkazib berish muhim o'rin tutadi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaliklarida 2000-2022-yillar davomidagi bug'doy yetishtirish tahlili (ming tonna) [2]


Manba: STAT.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bu borada 2022-yilda aholini bug'doy va un mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash maqsadida respublikada 1 mln. 27 ming gektar yer maydonida bug'doy ekildi, natijada joriy yilning iyun-iyul oylarida 7 mln. 679 ming tonna hosil yetishtirish rejalashtirilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 1 million tonnaga ko'p. Agar ularning shu yillardagi bug'doy mahsulotini yetishtirish garmonik to'lqini parametrlarini (3-diagramma) oladigan bo'lsak, interval oraliq besh yil bo'lsa, bug'doy mahsulotini yetishtirish samaradorligi o'sib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

G'alla yetishtirishning iqtisodiy rivojlanish davrlari aniqlangan bo'lib, ularda o'sish va pasayishning tegishli fazalarining xususiyatlari va davomiyliigi ko'rsatilgan, don yetishtirishning garmonik to'lqini parametrlari aniqlangan.

Xulosa va takliflar. G'alla eng ko'p tarqalgan asosiy donli ekinlardan biri hisoblanadi. G'alla yetishtirish va iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida ko'p tomonlama aloqalarning mavjudligi barqaror don yetishtirish butun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va tovar bozori barqarorligini ta'minlashning asosi ekanligini ta'kidlash imkonini beradi.

Barqaror don yetishtirish mamlakat iqtisodiy tizimining salmoqli qismini rivojlantirish uchun salmoqli salohiyatga ega. Butun dunyo xalqlarining yarmidan ko'prog'i oziq-ovqat sifatida bug'doy nonidan foydalanadi va bu mahsulot "iste'mol savatidagi" birinchi o'rinda turadi. Demakki, non va non mahsulotlari iste'moli ulushi o'sib borayotgan bu iqtisodiy vaziyatda don ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi uchun ham juda muhimdir.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaliklarida 2000-2022-yillar davomidagi bug'doy mahsulotini yetishtirish garmonik to'liqini parametrlari (ming tonna) [3]

Manba: STAT.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Buning uchun nima qilish kerak?
– sotiladigan don mahsuloti ro'yxatini kengaytirish,
– birja savdosi dinamikasini ta'minlaydigan yangi savdo vositalarini joriy etish kerak.

Albatta, ushbu talab uchun yetarli ta'minot ham zarur.

Don ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash uchun men quyidagi qo'shimcha takliflarni tavsiya etaman.

– tegirmon sonini ko'paytirish;

– don ishlab chiqaruvchi trendlar metodikasi-dan tajriba almashish;

– g'alla yetishtirish sohasida maydon va unumdorligini oshirish;

– olis qishloqlarga un va un mahsulotlarini yetkazib berish xarajatlarini qoplash, buning uchun transport xarajatlarini qoplash tizimini yaratish;

– mamlakatning boshqa mintaqalaridan un mahsulotlarini import qilish orqali tanqislik oldini olish;

– narx barqarorligini ta'minlash.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 07.02.2017-yildagi PF-4947-son.
2. Atabayeva X.N., Xudayqulov J.B. O'simlikshunoslik. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2018.
3. Ильина З.М. Устойчивость развития продовольственной системы: методические аспекты. // Весті Нацыянальнай акадэміі навук Беларусі. Серыя аграрных навук. 2013. № 2. С. 9-19.
4. Turayeva G. Iqtisodiyot tarmoqlarida birja mexnizmlaridan foydalanish. // Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2022, 1 (7), 165-168. <http://econferences.ru/index.php/tafaps/article/view/2713>
5. Zavorotin E.F. Organizacionno-jekonomicheskij mehanizm ustojchivogo razvitija agropromyshlennogo kompleksa i sel'skih territorij v Povolzh'e [Tekst]. / E.F.Zavorotin, V.I.Afanas'ev, A.A.Gordopolova, N.S.Tjurina, A.P.Nesmyslenov i dr. – Saratov: Saratovskij istochnik, 2017. – 300 b.
6. Mazloev V.Z. Formirovanie processov transformacii jekonomicheskogo mehanizma agrarnogo sektora [Tekst]. / V.Z.Mazloev, M.G.Ozerova. // Jekonomika sel'skogo hozjajstva Rossii. 2017. № 8. С. 15-21.
7. Abdug'aniyev O. Iste'mol savatchasi: uni optimallashtirish iqtisodiy va tibbiy omillar bilan chambarchas bog'liq. <https://xs.uz/uz/post/iste'mol-savatchasi>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019-yildagi PF-5853-sonli farmoni.
9. Burxonov A.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. 2021. – 499 bet.
10. Qaxxorovna T.G., Djurayevich Z.A. Qishloq xo'jaligida innovatsion faollikni oshirish. // Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar on-layn ilmiy jurnali, 2023, 3 (2), 80-84.
11. Gulizahro T., Shohzodbek S. The Role and Importance of Industry in the Fight against Poverty in Today's Economy. // Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2022, 1 (2), 5-12.